

PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Feruzabonu Ravshanova

ChDPU Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Anotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda ta'lim sohasining barcha jabhalarini qamrab olishga ulgurgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri haqida tushunchalar yoritib o'tilgan. Shu jumladan, pedagogic ta'lim innovatsion klasterining ilmiy va nazariy asoslari, respublikamizdagi strategic yo'nalishlari keltirib o'tilgan.*

Tayanch so'zlar: *innovatsiya, klaster modeli, kontsentratsiyalashuv, ta'lim klasteri, integratsiya, mimetik metod, component, globallashuv jarayoni.*

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida barcha sohalarga joriy qilinayotgan innovatsiyalarning maqsadi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga qaratilgan. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri "klaster modeli" bo'lib, bugungi kunda u mamlakatimizda ko'proq agrar, to'qimachilik, yengil sanoat va farmatsevtika sohalorida keng qo'llanilmoqda.

Aslida "klaster"(cluster) so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, tarjima qilinganda "to'plam", "to'p", "guruh", "kontsentratsiya", "guruhlarga to'plash", "to'plamlarda o'sish" kabi ma'nolarni anglatadi. Dastlab bu termin statistika va kompyuter sohasida paydo bo'lgan, keyinchalik iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo'llanila boshlandi.

Rus olimasi T.I.Shamova esa klasteri alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) sifatida tasavvur qilib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalarda birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi, deb tushunadi. Yana bir rus olimasi L.Bespalova klasteri ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funktsional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma, deb hisoblaydi.

Biz klaster belgilaridan kelib chiqib, quyidagi xulosani ayta olamiz: iqtisodiyotdagi "klaster" tushunchasi jug'rofiy jihatdan yaqin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, xizmat ko'rsatuvchi sohalarda, ilmiy markazlar, tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va sub'yektlar raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida kontsentratsiyalashuvi jarayonidir. Klaster modelining iqtisodiyotga kirib kelishi tabiiy jaryon sifatida qaralishi lozim. Chunki keying yarim asrga yaqin davr mobaynida dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti sahnasida raqobat muhitining keskin oshishiga olib keldi. Bunday ayovsiz raqobat

sharoitida korxonalarining turg'un faoliyat olib borishlari uchun ularning o'zaro ko'p tomonlama manfaatli kelishuvlari juda muhim zaruratga aylandi.

Ingliz tilidagi manbaalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim klasterlari amaliyotda keng qo'llanilmoqda, ammo muammo bo'yicha nazariy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Rus tilidagi adabiyotlar tahlili esa shuni ko'rsatadiki, Rossiyada nazariy tadqiqotchilar guruhi shakllangan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, ammo, ularni nashr qilish sur'ati biroz past ko'rsatkichni tashkil qiladi. Mavjud o'quv klasterlarining modellari Yevropa amaliyotida yetarli darajada mavjud. Klaster siyosati Rossiya amaliyotida asosan ularni shakllantirish va rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi.

Biz rus tilidagi mavjud bo'lgan manbaalarda ta'lim klasterlarining quyidagi ta'riflarini uchratishimiz mumkin:

1. Innovatsion ta'lim klasteri – OTM, ilmiy tadqiqot markazlari, sanoat vakillarining ma'lum imtiyozlarga ega bo'lish maqsadida boshlang'ich ishlardan innovatsion tayyor mahsulotgacha bo'lgan ishlab chiqarish zanjirida o'zaro hamkorlikning ta'minlanishi.

2. Ta'lim klasteri – zanjir ichidagi gorizontal ulanishlarga asoslangan ta'lim – texnologiya – ishlab chiqarish innovatsion zanjiridagi o'qitish, o'zaro ta'lim va mustaqil o'qitish vositalari tizimi.

3. Ilmiy-ta'limiy klaster – uzluksiz ta'limning maktabdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan yagona tizimi.

4. Ta'lim klasteri – ish beruvchilar va o'quv yurtlarining o'zaro o'tuvchi dasturlar majmuasi yordamidagi aloqasi.

Integratsiya shakllarini kengaytirish uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biridir. Belarus Respublikasida uzluksiz pedagogic ta'limning zamonaviy tizimi rivojlanish tamoyilida ishlashi ochiqlik, bosqichlilik, ko'p tarmoqlilik va ko'p funksiyalilik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ta'lim amaliyotini tahlil qilish natijasida aniqlangan quyidagi muammolar Belarus Respublikasi ta'lim tizimida klaster yondashuvini amaliyotga tatbiq etilishiga sos bo'ldi:

- Ta'lim muassasalarining mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish strategiyasi hamda taktikasini aniqlashda ajralib turishi;

- Uzluksiz pedagogic ta'lim sifatini oshirish uchun ta'lim muassasalarining ilmiy-uslubiy integratsiyasining yetishmasligi;

- Maktabgacha, maxsus, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, bolalar va yoshlarning qo'shimcha ta'lim muassasalarida mutaxassislarni jadal shaxsiy-kasbiy rivojlantirish muhitini yaratish uchun kafedralar filiallari, tajriba-innovatsion maydonchalar salohiyatining inobatga olinmaganligi.

Shu jumladan, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta'minlash, hududning zamonaviy pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini sifatli qondirish kabi ta'limiy va ijtimoiy muammolarni hal

qilishda pedagogic ta'lim innovatsion klasteri yangi innovatsion model sifatida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Innovatsion ta'lim klasterining yadrosi tadqiqot, ta'lim va tijorat hamkorlari o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil qilishdan iborat. Ayni paytda, ta'lim klasteri faol infratuzilmalarga kirish, ta'limda mavjud voqelik va o'zgaruvchi imkoniyatlarning mavjudligi kabi innovatsion xususiyatlari bilan ajralib turadi. Rossiyada bundan o'n yillar oldin innovatsion klasterlarni yaratish muammosi tiklanish bosqichida bo'lgan. Bosqichma-bosqich bu masala rivojlanib kelmoqda. Shuning uchun bu yo'nalishdagi mavjud tajribani tahlil qilish va umumlashtirish alohida ahamiyatga ega. Ko'pgina mamlakatlarda klasterlar innovatsion faoliyatni faollashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida tashkil etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda klasterlarni rivojlantirishni faollashtirishning asosiy vositasi kompleks klaster dasturlari hisoblanadi. Bunday dasturlar infrastruktura (asosan sanoat siyosatini amalga oshirishga xos bo'lgan) va innovatsion yo'naltirilgan loyihalarni o'z ichiga oladi.

“Ta'lim klasterlari” tushunchasining mohiyati oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, ixtisoslashtirilgan maktablar, asosiy korxonalar va mutaxassislarning asosiy mijozlari va iste'molchilari yetakchi filiali homiyligida birlashishidan iborat. Ta'lim klasteri talabalarning kelajakda kasbiy faoliyati sohasiga deqsinishlarsiz kirib borishi, yaxshi amaliyotlarni o'rganish va amalda qo'llash, real sharoitlarda ilmiy tadqiqot natijalarini sinab ko'rish va real vaqt hamda aniq sharoitlarda kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash imkonini beradi. Bunday sharoitda ommabop va istiqbolli mutaxassisliklarni ochish, tegishli fanlarni o'rganish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali mehnat bozori talablariga tezkorlik bilan javob berish mumkin. Ta'limda klaster yondashuvning asosiy afzalliklari sifat, zamonaviylik, ochiqlik, uzluksizlik, uzviylik va pirovardida, ta'lim xizmatlarining raqobatbardoshligidir.

Ilmiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, “pedagogik ta'lim klasteri” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Pedagogic ta'lim klasteri – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'yektlar, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

Pedagogic ta'lim klasteri mimetic (grek tilida mimiomai – taqlid qilmoq) metod bo'lib, iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasida samaradorlikka olib kelgan modelni pedagogic ta'lim tizimiga ijodiy asosda joriy etishni nazarda tutadi. Pedagogic ta'lim klasteri “ta'lim – ilm-fan – ta'lim vositalari – texnologiya – boshqaruv – biznes” innovatsion zanjirini hosil qiladi, uni ilmiy nuqtai nazardam tadqiq qilish bugungi pedagogikamizning oldidagi muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Ta'lim majmuasini tashkil qiluvchi bo'g'inlar o'rtasida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va

samaradorlik nuqtai nazaridan, ma’lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’minlash tobora zaruratga aylanib bormoqda.

Mamlakatimiz sharoitida pedagogic ta’lim klasterining strategic yo’nalishlari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

1. Maktab va maktabdan tashqari ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun pedagogic oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek, pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o’quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish;

2. Pedagogika sohasidagi talab va ilg’or xorijiy tajriba, o’quv jarayoniga zamonaviy pedagogic va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda viloyat ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlari, o’quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish;

3. Pedagogic oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha viloyatdagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish;

4. Pedagogic oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha viloyat umumta’lim maktablarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategic vazifalaridan kelib chiqqan holda viloyatdagi ta’lim muassasalari rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini sifatli oshirish hamda qayta tayyorlash bo’yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash;

5. Pedagogic oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo’nalishlari bo’yicha uzluksiz pedagogic ta’limning information ta’minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog innovatorlarni qo’llab-quvvatlash;

6. Pedagogic ta’limni tartibga soluvchi mavjud me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish;

7. Pedagogic ta’lim innovatsion klasterining platformasini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ta’limga klaster yondashuvi ishlab chiqarish ehtiyojlari va ta’lim dasturlarining kombinatsiyasi hisoblanadi. Ushbu kombinatsiyaning oqilona yechimlarini ishlab chiqish ilmiy muammo sifatida jiddiy tadqiq qilishni talab qiladi. Muammoni tadqiq etish jarayonida hudud va sohalarning o’ziga xosligi, kadrlarga bo’lgan ehtiyoj hamda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida ushbu masalaning kompleks xarakterda aks etishi muhim hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiyot sektorlari oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalariga yuqori malakali mutraxassislarga bo’lgan ehtiyoj bo’yicha buyurtmalarni shakllantirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'.Muhamedov, U.Xodjamqulov, S.Toshtemirova. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri Toshkent "Universitet" 2020
2. Abdurahmanov O.K Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2014
3. Alimova G.L, Aripova Z. Mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsiyalar, biznes-daily.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori, Toshkent, 2017 yil 20 aprel.
8. Pazilova, M. E. (2024). DEVELOPMENT OF LEARNING COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT STUDY. *Journal of social sciences and humanities researchfundamentals*, 4(04), 10-14.
9. Ermekbaevna, P. M. (2023). DEVELOPMENT OF STUDENTS' EDUCATION-KNOWLEDGE ACTIVITY THROUGH PREPARATION FOR FUTURE PROFESSIONAL ACTIVITY. *Zibaldone. Estudios Italianos - Vol. X*, 10(Issue 2 (2023)), 378-384.
10. Муминова, А. (2021). Order, permission, prohibition and instructions in the category of motivation. *Danish Scientific Journal*, (45-2), 20-23.